



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 8 (1607), 2026-yil 14-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ZAMONAVIY MUDOFAA QUDRATIGA EGA O‘ZBEKISTON ARMIYASI XALQIMIZNI VA YURTIMIZDAGI TINCHLIK-OSOYISHTALIKNI HIMOYA QILISHGA DOIM TAYYOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Vazirlar Mahkamasi a‘zolari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, harbiy okruglar qo‘mondonlari, harbiy-

ma‘muriy sektorlar rahbarlari, boshqa idoralar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. O‘tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma‘naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil oshirib borilmoqda, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanmoqda.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg‘ulotlar soni va shiddati 1,5 barobarga oshirildi, uchuvchisiz uchish apparatlari bo‘linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Armiyani raqamlashtirish bo‘yicha boshlangan ishlar natijasida axborot xavfsizligi, boshqaruv va ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta‘lim tizimi tubdan yangilandi,

malakali professor-o‘qituvchi va instruktorlardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANINING 34 YILLIGI VA VATAN HIMOVACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari! Qadrlı vatandaşlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakkab etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda o‘z hayotini Vatan himoyasidek g‘oyat sharaflı va mas‘uliyatli ishga bag‘ishlagan, harbiy qasamyodiga sodiq qolib, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ko‘z qorachig‘idek asrab kelayotgan ona yurt posbonlariga yana bir bor yuksak hurmat va ehtirom bildiramiz.

Ayni vaqtda Vatan oldidagi yig‘itlik burchini bajarish chog‘ida mardlarcha halok bo‘lgan qahramon o‘g‘lonlarimizning xotirasiga chuqur hurmat bajo keltiramiz.

Bugungi kunda xalqimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ulkan yutuq va maralarni qo‘lga kiritmoqda. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tom ma‘nodagi tarixiy o‘zgarishlarda shavkatli Qurolli Kuchlarimizning, sizlarning ham munosib hissangiz bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Biz sizlarni buyuk ajdodlarimiz an‘analarning shonli davomchilari deb bilamiz va sizlardek Vatanga fidoyi, dushmanga shafqatsiz, jangovar saflarda doimo hushyor va kurashga shay bo‘lgan azmu shijoat sohiblari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, el-yurtimizga shunday dovyurak, botir va bahodir farzandlarni tarbiyalab bergan otalarga, harbiy xizmat davomida barcha quvunch va tashvishlarni ular bilan baham ko‘rib kelayotgan oila a‘zolariga o‘zining samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

Qadrlı do‘stlar! Keyingi yillarda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ortga qaytmas islohotlarimizning mustahkam

kafolatlaridan biriga aylanib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy qudratini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshiryapmiz. Jumladan, boshqaruv va ta‘minot tizimi takomillashtirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilinmoqda, qo‘shinlarimizning jangovar saflari yangicha ta‘lim va tarbiya olgan malakali ofitser va serjantlar bilan to‘ldirilmoqda.

Shaxsiy tarkibning tayyorgarlik darajasi, harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va ma‘naviy salohiyati izchil yuksaltirib borilmoqda. Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan bosqichma-bosqich ta‘minlanmoqda.

Yoshlar o‘rtasida harbiy xizmatga qiziqishni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalq bilan armiya o‘rtasidagi mustahkam birlik va jipslikni yanada kuchaytirishga qaratilgan samarali ishlarimiz qat‘iy davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning siyosiy va harbiy xaritasida qanday shiddatli o‘zgarishlar yuz berayotganini barchamiz ko‘rib, anglab turibmiz.

Turli mintaqalarda geosiyosiy vaziyat tobora murakkablashib, ziddiyat va qonli to‘qnashuvlar kuchaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, yangi avlod qurol-yarog‘lari paydo bo‘lmoqda, jangovar harakatlar olib borishning strategiya va taktikasi yanada takomillashmoqda.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, biz kelgusida jang va boshqaruv usullarini zamon talablari asosida yangilaymiz, yuqori malakali harbiy kadrlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratamiz.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat‘iyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mardona fazilatleri hal qiladi.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika, jumladan, sun‘iy intellekt asosida robotlashtirilgan majmualar bilan ta‘minlash, qo‘shinlarni boshqarish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish ham doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishga doir ishlarning samarasini oshirib, ularning turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni kuchaytiramiz. Bu borada davlat va fuqarolik institutlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishiga alohida ahamiyat qaratamiz.

Har bir harbiy xizmatchi xalq bilan armiya — bir tanu bir jon ekanini, uning ortida 38 millionlik xalq tog‘dek tayanch bo‘lib turganini doimo his etishi, shundan cheksiz kuch, ruh va madad olishi kerak.

G‘ayrat-shijoatda tengsiz bo‘lgan harbiylarimiz yovlar oldida hech qachon bosh egmagan qo‘rqmas va o‘tyurak ajdodlarimizning o‘lmas merosini o‘rganib, ulardan ibrat va saboq olib, Vatan oldidagi muqaddas burchini bundan buyon ham sharaf bilan ado etadilar deb ishonaman.

Aziz Vatan himoyachilari! Mana shu hayajonli damlarda har biringizni bugungi bayram bilan yana bir bor chin dildan qutlab, sizlarga va oila a‘zolaringizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi olijanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo‘lida hech qachon tolmang, yutuq va zafar sizlarga doimo yor bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti,
Qurolli Kuchlar
Oliy Bosh Qo‘mondoni

QUROLLI KUHLARIMIZ SALOHİYATINI YANADA OSHIRISH HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING O‘ZAGI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev 13-yanvar kuni Mudofaa vazirligi tizimidagi obyektlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Chirchiq aviatsiya ta‘mirlash zavodiga tashrif buyurdi. Prezidentga korxonada amalga oshirilgan keng ko‘lamli modernizatsiya natijalari hamda uning yangi yuqori texnologik bo‘linmalari faoliyati haqida ma‘lumot berildi.

Zavod negizida MDH va mintaqamizda yagona bo‘lgan “Airbus” vertolyotlariga texnik xizmat ko‘rsatish markazi ishga tushirilgan.

Markaz kompaniyasi sertifikatliyadan	Fransiyaning tomonidan	“Airbus” rasmiy bo‘lib,
--------------------------------------	------------------------	-------------------------

ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil etilgani, xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan. Bu yerda G‘arb aviatexnikasining zamonaviy modellari, shu jumladan, H-125, H-215 va H-130 rusumli vertolyotlar uchun servis va ta‘mirlash ishlarining to‘liq janjiri yo‘lga qo‘yilgan.

Markaz O‘zbekistonni “Airbus” vertolyotlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha muhim mintaqaviy xabga aylantirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz yetakchisi markaz imkoniyatlari bilan tanishdi va mutaxassislar bilan muqot qildi.

Shu yerning o‘zida Prezidentimizga zavodning Su-25 harbiy samolyotlarini kapital ta‘mirlash va chuqur modernizatsiya qilish bo‘yicha yangilangan sexlari taqdimot qilindi. Ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish hisobiga endilikda korxonada texnikani zamonaviy navigatsiya tizimlari, tungi ko‘rish quurilmalari va bortdagi o‘zini himoya qilish komplekslari bilan jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANINING 34 YILLIGI HAMDA VATAN HIMOVACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta‘minlash, professional milliy armiyani shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirishdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharaflı va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko‘rsatgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo‘shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mardlik” ordeni bilan

Ahmedov Sherzod Hurmatjon o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Vapayev Sardarbek Rajabbayevich — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Madiyev Hakim Abdumurat o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi

Xudayberganov Xurshid Xamdamovich — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Sayfutdinova Irina Vladimirovna — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni xizmat katta ofitseri

“Jasorat” medali bilan

Abdullayev Alishoh Ilhom o‘g‘li — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Amonov Nodirjon Ibodilloevich — Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh-qarmasi Buxoro shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta yo‘riqchi-qutqaruvchisi

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON

ZAMONAVIY MUDOFAA QUDRATIGA EGA O‘ZBEKISTON ARMIYASI XALQIMIZNI VA YURTIMIZDAGI TINCHLIK-OSOYISHTALIKNI HIMOYA QILISHGA DOIM TAYYOR

Boshlanishi 1-betda

Ta’lim jarayoniga o’qitishning ilg’or raqamli texnologiyalari, jumladan, sun’iy intellektga asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgani harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yig’ilishda mamlakatimiz xavfsizligini ta’minlash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Turli mintaqaviy mojarolar kengayib, qurollanish poygasi avj olayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqaro huquq normalari va xalqaro diplomatiya zaiflashib borayotgani qayd etildi.

— Bir narsani tushunib olish zarur. Zamonaviy urush tabiati tubdan o’zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g’alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun’iy intellekt, zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim asosida olib borilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois, tinchlik va xotirjamlik eng qimmat boylikka aylanayotganini bir daqiqa ham unutmaslik lozimligi ta’kidlandi. Bu boylikni asrab-avaylash uchun esa har bir soha va tarmoq xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarish bo’yicha “proaktiv ish rejimi”ga o’tishi shartligi ko’rsatib o’tildi.

Oliy Bosh Qo’mondon kelgusi istiqbolga mo’ljallangan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga ustuvor e’tibor qaratiladi.

— Shuni unutmaslik kerakki, harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning asosiy shartidir, — dedi Prezident.

Muddatli harbiy xizmat — faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o’rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilishi zarurligi qayd etildi.

Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo’lib chiqishi bo’yicha mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Harbiy qismlardagi asosiy yo’nalishtirish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo’yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi. Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o’tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi.

Har yili 5 ming askar saralab olinib, “Bir million dasturchi” va “Besh million sun’iy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida o’qitiladi.

Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o’tash davrida harbiy qismining o’zida oliygohga o’qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o’tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o’qishini boshlaydi.

Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o’quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo’lgan yoshlarga xorijiy til va

fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontrakt asosida qabul qilinsa, foizsiz ta’lim krediti ajratiladi.

Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta’minlash bo’yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug’ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo’lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o’tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususiy sektorda faoliyat yuritmoqchi bo’lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to’lab beriladi.

— Bir so’z bilan aytganda, “muddatli harbiy xizmatni o’tash — yoshlar uchun muvaffaqiyat yo’li”ga aylanishi kerak, — dedi Prezidentimiz.

Muhandislik-texnik, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekani ta’kidlandi. Shu bois, muhandislik-texnik yo’nalishtagi harbiy-ilmiy bazani mustahkamlash, joylarda harbiy texnoparklar tashkil etish zarurligi ko’rsatib o’tildi.

Harbiy xizmatchilarning javgavari shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma’naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o’zi talab etmoqda.

Bunda kitobxonlik muhim o’rin tutadi. Shu bois, joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo’naltirilgan maktab-litsey o’quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o’rtasida Oliy Bosh Qo’mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo’liga qo’yiladi. Okrug, qo’mondonlik, vazirlik, Oliy Bosh Qo’mondon tanlovlarida g’olib va sovrindor bo’lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi.

Har yili harbiy xizmatchilar o’rtasida ko’pkurash, qo’l jangi, og’ir atletika kabi sportning 10 dan ortiq an’anaviy turlari bo’yicha musobaqalar o’tkazilmoqda. Endi joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo’yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi.

— Mintaqaviy va global vaziyatni doimiy tahlil qilib borish, milliy armiyamizning salohiyatini mustahkamlash — bugungi kun talabi. O’zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi, buning uchun tezkor, yuqori texnologiyali, yangi jang sharoitlariga mos bo’lishi kerak, — dedi Prezident.

Shu sababli, qo’shinlarni sun’iy intellekt asosidagi robotlashgan majmualar va uchuvchisiz tizimlar, yengil harbiy texnika, zamonaviy qurol-aslaha, razvedka vositalari bilan jihozlashga alohida e’tibor qaratish kerakligi ko’rsatib o’tildi.

Prezidentimiz mudofaa sanoatini yanada rivojlantirish, soha korxonalarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo’lishi kerakligini qayd etdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mutasaddilarga shaxsati doir ma’lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta’minlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash topshirildi.

— Harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash, ularning oila a’zolari va harbiy pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish doimo diqqat-e’tiborimiz markazida bo’lishi zarur, — dedi Prezidentimiz va bu borada katta yangiliklarni e’lon qildi.

Xususan, 1-apreldan boshlab Mudofaa vazirligi ofitserlariga ko’p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshiriladi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik maoshi 10 foizga ko’paytiriladi.

Hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo’limlarining harbiy bo’lmagan xizmatchilarning oyligi bu yil 20 foizga, kelasi yili yana 50 foizga oshiriladi.

Qurolli Kuchlar safida 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdori 75 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy qurilishi kengaytiriladi.

Mas’ullarga harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minotini belgilaydigan qonun loyihasini ishlab chiqib, parlamentga kiritish topshirildi.

Zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko’lami ham kundan-kunga o’zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo’yilayotganini inobatga olib, davlatimiz rahbari sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko’rib chiqish vaqti kelganini ko’rsatib o’tdi.

Yangi Mudofaa doktrinasi mamlakatimizni hech qaysi harbiy blokka qo’shilmalik maqomini saqlab qolishini, ko’p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etishini, yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustahkamlilik va mintaqaviy barqarorlik yo’nalishtida rivojlanishini ta’minlashi lozimligi ta’kidlandi.

— Umuman, yangi doktrina armiyani texnologik yangilash va ilg’or harbiy yechimlarni joriy etish uchun asos bo’lib xizmat qilishi kerak, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari yig’ilish yakunida Qurolli Kuchlarimizning jasur askar va serjantlari, ofitser va generalari, faxriylari, ularning oila a’zolari va yaqinlarini O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabrikлади.

Sizlarning jasoratigingiz, qasamyodga sadoqatingiz, el-yurt himoyasi yo’lidagi fidoyiligingiz bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Go’zal yurtimizda tinchlik-osoysishtalik va hamjihatlik doimo hukm sursin, jonajon Vatanimiz yanada mustahkam va barqaror bo’lsin! — dedi davlatimiz rahbari.

Yig’ilishda mudofaa vaziri, harbiy okrug qo’mondonlari va boshqa mas’ullarning hisobot hamda takliflari eshitildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2026-yil 12-yanvar

SH. MIRZIYOYEV

QUROLLI KUCHLARIMIZ SALOHİYATINI YANADA OSHIRISH HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING O‘ZAGI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari tashrif yakunida mamlakatimiz mudofaa sanoati salohiyatini yanada mustahkamlash bo’yicha topshiriqlar berdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatidagi Maxsus operatsiyalar kuchlari poligoni bilan tanishdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan so’nggi yillarda Mudofaa vazirligi qo’shinlaridagi barcha dala o’quv maydonlari, harbiy qism va muassasalarda modernizatsiya ishlari olib borilib, ular xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Maxsus bo’linmalarni samarali tayyorlash maqsadida xalqaro tajriba va qo’shinlarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olib tashkil etilgan Maxsus operatsiyalar kuchlarining yangi poligoni mazkur ishlarning mantiqiy davomi bo’ldi.

Poligon obyektlarida shaxsiy tarkibning javgavar ko’nikmalarini takomillashtirish, tayyorgarlik mashg’ulotlarini samarali yo’lga qo’yish hamda ma’naviy-ruhiy barqarorligini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi javgavar va maxsus tayyorgarlik mashg’ulotlarini tashkil qilishning yangi usullari bilan tanishdi. Qurolli Kuchlar bo’linmalari bilan o’tkazilayotgan mashqlarning faol bosqichini kuzatdi.

O’quv davomida turli qo’shinlarga mansub bo’linmalarning javgavar imkoniyatlari hamda ularning birgalikdagi harakatlarining muvofiqlashganlik darajasi, shuningdek, qo’shinlar va qurol-yarog’ni boshqarishning yangi raqamli tizimlari namoyish etildi.

Turli javgavar operatsiyalarni o’tkazishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan samarali foydalanishi usullari, shuningdek, turli xil o’quv-javgavar vazifalarni bajarish jarayonida artilleriya, aviatsiya, havo hujumidan mudofaa va quuruqlikdagi qo’shinlarning birgalikdagi harakatlari ko’rsatildi.

Bunda kichik komandirlarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalari va boshqaruv mahorati darajasi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning tez o’zgarib borayotgan javgavar vaziyat sharoitida jang maydonida zamonaviy qurol-yarog’ va texnikani samarali o’qitish bo’yicha kasbiy mahoratini baholashga alohida e’tibor qaratildi.

O’quv yakunida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni bo’linmalarning tayyorgarligi va ularning

birgalikdagi harakatlarida erishilgan uyg’unlik darajasini yuqori baholadi.

Davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarning qo’mondonlik tarkibi bilan bo’lgan shubhada dunyoda xavfsizlikka tahdidlar avj olayotgan bugungi tahlikali kunlarda Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada mustahkamlash, xalq va armiya birdamligini ta’minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy sohadagi islohotlarning o’zagini tashkil etishi kerakligini ta’kidladi.

Shundan so’ng O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq shahridagi texnoparkka tashrif buyurib, mudofaa sanoati korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda zirhli va maxsus texnikalar hamda ilg’or funksional imkoniyatlari va texnik xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir necha turdagi masofadan boshqariladigan javgavar modullarni ishlab chiqarish yo’liga qo’yilgan.

Ushbu yechimlar harakatlanuvchi va turg’un nishonlarga, shu jumladan, ko’rinish cheklangan sharoitlarda o’t ochishni ta’minlaydi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv, barqarorlashtirish, optik va akustik kuzatuv tizimlari, shuningdek, zamonaviy nishonga olish vositalari bilan jihozlangan.

Ushbu yechimlar harakatga asosiy butlovchi qismlarni yig’ish, optik-elektron va barqarorlashtirish tizimlarini o’rnatish, dasturiy sozlash va gemmetiklikni nazorat qilish, qurol-aslahalarni integratsiyalash va kompleks sinovlarni o’z ichiga olgan ishlab chiqarish bosqichlari haqida ma’lumot berildi.

Yakuniy bosqichda tayyor modullar yengil zirhli texnika namunalariga o’rnatiladi va dala sharoitida tekshiriladi.

Javgavar modullar turli platformalar, jumladan, yengil zirhli texnika, maxsus avtomobillar, katerlar va zirhli transportyorlarni jihozlash uchun mo’ljallangan.

Loyiha bir qator xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yurtimizning tegishli idoralari va sanoat korxonalari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimiz mudofaa sanoati korxonalarida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni ko’paytirish, ish o’rinlarini yaratish, o’z sanoat va texnologik bazasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari mahsulotlarning sifatini va ishonchligiga doir talablarga qat’iy amal qilish, mahalliyashtirishni izchil kengaytirish, muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhimligini ta’kidlab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘zA

Uyg‘ot

Bir asrki, achchiq dod-faryod
Kechalari charx urar, hayhot!
Mudramagin, ko‘zni och, do‘stim,
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

Behbudiyning qoni qoningda
Jo‘sh uradi tiyrak oningda.
Uyg‘oq nuqta bordir ongingda,
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

Juvonmarg ul bobolar haqqi,
Bolam degan nidolar haqqi,
O‘qqa uchgan duolar haqqi
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

U uyg‘onsa, chekinar zillat,
Yo‘q bo‘ladi bid‘atu illat.
Uyg‘onsa, uyg‘onar millat,
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

Bobolaring kitoblar ortgan
Karvonlarni el aro tortgan.
Ular dunyolarni uyg‘otgan,
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

Ko‘zlariningni qachon bosdi gard?
Qaydan keldi g‘aflat degan dard?
Sen dunyoni qutqarishing shart,
Ichingdagi jadidni uyg‘ot.

Bir tog‘ing bor, purviqor bir tog‘,
Bir daryo bor, hamisha uyg‘oq.
Yurtboshingning ko‘zlariga boq,
Yurtboshingning so‘zlariga boq:
Ichingdagi jadidni uyg‘ot!
Ichingdagi jadidni uyg‘ot!

Iqbol MIRZO,
O‘zbekiston xalq shoiri

OROMINGNI OGOHLARING QO‘RIQLAYDI

Sen ortimdan ta’na toshi otma, inim,
Nomard azal mardlarga tik yo’liqmaydi.
Alloh shohid, bilgil, xalqim, jon vatanim,
Oromingni ogohlaring qo’riqlaydi.

O‘zbekiston ko‘zimda yongan shamdir,
Shahidlaring kipriklardan tushmas namdir;
U otamdir, u onamdir, u bolamdir,
Oromingni ogohlaring qo’riqlaydi.

Ori borning boshi mudom osmon bo’lgan,
Mardlar doim yurti uchun qalqon bo’lgan,
Kim aytibdi, sotqin kaslar inson bo’lgan,
Oromingni ogohlaring qo’riqlaydi.

Jonim vatan — jonimizning chashmasidan,
Sen onamning oppoq sochi, ko’z qoshisan,
Millatimning eng keksasi, eng yoshisan,
Oromingni ogohlaring qo’riqlaydi.

Biz bir emas, bizlar yuz ming, biz millionmiz,
Buyuk xalqmiz, biz Temuriy Turkistonmiz,
Shu vatanga jonlar posbon, unga jonmiz,
Oromingni ogohlaring qo’riqlaydi.

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri



2026-yil 14-yanvar, 8-son

Kuchli iqtisodiyot – taraqqiyot asosi

QOIDA YARATUVCHI VA BOZOR O‘RTASIDAGI MUVOZANAT



Sohibjon TOPILDIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori

“Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlarga dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish — kelgusida islohotlarimizning bosh mezon bo‘lishi shart” — deya alohida ta’kidladi Prezidentimiz.

Binobarin, iqtisodiy tajriba va izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bozor ham, davlat ham yakka holda barqaror taraqqiyotni ta’minlay olmaydi. Bozor erkinligi raqobat, innovatsiya va samaradorlikni rag‘batlantirsa, davlat ishtiroki ijtimoiy adolat, barqarorlik va umumiy qoidalamni ta’minlaydi. Muammo aynan shu ikki kuch o‘rtasidagi muvozanat buzilgan paytda yuzaga chiqadi.

Agar davlat bozorga ortiqcha aralashsa, tadbirkorlik tashabbuslari cheklanadi, raqobat susayadi va iqtisodiy faollik pasayadi. Aksincha, davlatning roli yetarlicha ta’minlanmasa, monopoliyalər shakllanishi, narxlarini sun’iy oshirish, iste’molchilar manfaatlarining buzilishi xavfi ortadi. Shu bois,



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



zamonaviy iqtisodiy siyosatda eng dolzarb masala — davlat va bozor o‘rtasida oqilona muvozanatni topish hisoblanadi.

Ayni paytda O‘zbekiston yangi iqtisodiy siyosat bosqichiga qadam qo‘yib borarkan, davlatning iqtisodiyotdagi rolini aniq belgilab olishi, uni bevosita ishlab chiqaruvchi emas, balki tartibga soluvchi va kafolatlovchi sifatida shakllantirish lozim. Bizning fikrimizcha, aynan shu yondashuv zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq javob beradi va barqaror iqtisodiy o‘shishga zamin yaratadi.

Yangi iqtisodiy siyosat davlatni bozordan chetlatishni emas, balki uning aralashuvini sifat jihatdan o‘zgartirishni nazarda tutadi. Davlat bozorni boshqarishi kerak emas, ammo uning adolati, shaffof va raqobatli ishlashini ta’minlashi shart. Bu esa qonun ustuvorligi, monopoliyaga qarshi samarali mexanizmlar va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda fuqarolarning farovonligi, tadbirkorlarning ishonch bilan faoliyat yuritishi va investitsiya muhitini joriy boshqarilgan aynan shu muvozanatga bog‘liq. Aslida, davlatning asosiy vazifasi bozorni cheklash emas, balki uni sog‘lom raqobat asosida rivojlantirishdir. Zero, erkin va adolatli bozor mavjud jamiyatda sifati mahsulot, maqbul narx va barqaror ish o‘rinlari shakllanadi.

Davlat va bozor o‘rtasidagi munosabatlar muvozanati turli mamlakatlarda turlicha shakllangan. Ba’zi holatlarda davlatning ortiqcha ma’muriy aralashuvi tadbirkorlik faolligini pasaytirgan, investitsiya muhitini zaiflashtirgan. Boshqa ayrim misollarda esa davlat nazoratining yetarli darajada emasligi bozorda ustun mavqega ega subyektlarning shakllanishiga, narxlarini sun’iy oshirish va raqobatni cheklash holatlariga olib kelgan.

Bozor iqtisodiyotining muhim ustunliklaridan biri — raqobat. Raqobat ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarni qisqartirishiga, sifatini oshirishiga va innovatsion yechimlarni joriy etishga undaydigan kuch. Shu bois, raqobat muhitini muhofaza qilish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlat va bozor o‘rtasidagi muvozanat masalasi bugun tasodifiy muhokama mavzusi emas, balki O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlari bilan bevosita bog‘liq strategik yo‘nalishdir. Yangilanaotgan O‘zbekiston — 2030” strategiyasi aynan shu muvozanatni ta’minlashni iqtisodiy siyosatning markaziga qo‘yadi.

Mazkur strategiyada iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish, raqobat muhitini mustahkamlash hamda davlatning iqtisodiyotdagi rolini sifat

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatimizni yanada rivojlantirish maqsadida sanab o‘tgan oltita ustuvor yo‘nalishlardan biri aynan iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan. Xususan, ikkinchi ustuvor yo‘nalish — iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazishdan iborat.

jihatdan yangilash asosiy ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo‘yilgan. Ushbu yondashuv O‘zbekiston uchun davlat va bozor munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Uning muhim jihatlaridan yana biri — davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini qisqartirish, uning o‘rniga tartibga soluvchi va kafolatlovchi funksiyalarini kuchaytirishdir. Ya’ni davlat korxonalarini boshqaruvchi emas, balki adolatli qoidalarini o‘rnatuvchi, raqobatni himoya qiluvchi va bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta’minlovchi institut pozitsiyasini egallashini anglatadi. Bunday yondashuv zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq javob beradi.

Strategiyada xususiy mulk daxlizligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatiga ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish va investitsiya muhitini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa bozor mexanizmlarining erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shuni qat’iy aytayotganda, bozor erkinligi o‘z-o‘zidan emas, balki aniq qoidalar va samarali davlat nazorati mavjud bo‘lgan sharoitidagina ijobiy natija beradi.

E’tirof etish kerakki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar endilikda faqat niyat yoki dastur emas, balki ko‘rinib turgan amaliy natijaga aylangan. Xususan, O‘zbekiston tarixida ilk bor yalpi ichki mahsulot hajmining 145 milliard dollardan oshgani iqtisodiy o‘shishning real quvvatiga aylanganini bildiradi. Ekspert hajmining 23 foizga oshib, 33,4 milliard dollarga yetgani tashqi bozorlarda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ham ishlab chiqarish va savdo salohiyati kengayiganidan dalolat beradi. Oltin-valyuta zaxiralarining 60 milliard dollardan oshib, islohotlar uchun ishonchli moliyaviy tayanchga aylanishi iqtisodiy barqarorlikni sezilarli darajada kuchaytiradi.

2025-yilda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmining 43,1 milliard dollarga yetgani, jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foiz bo‘lgani kelgusi yillarda iqtisodiy faolligining yuqori sur’atlarda davom etishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan suveren reytingning “BB–” darajasidan “BB” pog‘onasiga ko‘tarilgani esa tashqi resurslar narxini pasaytirish, foiz stavklarini 1–1,5 punktga tushirish hamda yillik tashqi qarz xarajatlari kamida 300 million dollarga qisqartirish imkonini beradi.

Prezidentimizning yuqorida ta’kidlaganimizdek Murojaatnomada 2026-yil uchun iqtisodiy-ijtimoiy transformatsiyani jadallashtiradigan 6 ta ustuvor yo‘nalish taklif etilgan. Ishonchimiz komilki, bu yondashuv “davlat iqtisodiyotini boshqarishi kerak” yoki “bozor barcha narsani hal qiladi” degan ikki keskin qarash o‘rtasidagi eng maqbul — pragmatik yo‘ldir. Chunki har bir yo‘nalishda davlatning vazifasi bir xil: sharoit yaratish, qoida va adolatni ta’minlash, infratuzilma va inson kapitalini kuchaytirish; bozorning vazifasi esa — investitsiya, tashabbus, raqobat va innovatsiya orqali o‘shishni tezlashtirish.

Murojaatnomadagi ushbu olti yo‘nalishni birlashtirib turadigan umumiy g‘oya shundan iboratki, davlat — muhit va qoida yaratadi; bozor — o‘shish va qo‘shilgan qiymat yaratadi. Ishonchimiz komilki, ana shu hamkorlik modeli mustahkamlansa, 2030 maqsadlari ham, farovonlik mezonlari ham real natijaga aylanadi.

Keltirilgan tahlillar va raqamlar shundan dalolat beradiki, so‘nggi yillarda erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar tasodifiy emas. Ular davlat va bozor o‘rtasida shakllanib borayotgan yangi hamkorlik modeli samarasidir. Eng muhimi, iqtisodiy islohotlar inson hayotida sezilarli natija berishi lozim. Barqaror iqtisodiyot bu — faqat yalpi ichki mahsulot hajmining o‘shishi emas, balki barqaror ish o‘rinlari, barqaror daromad, sifati xizmatlar va ijtimoiy himoya demakdir. Xalq farovonligi esa davlat siyosati va bozor mexanizmlari qay darajada uyg‘un ishlayotganining eng aniq mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat va bozor o‘rtasidagi oqilona muvozanatni saqlash — yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategik yo‘li. Bu yo‘l orqali mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan barqaror, ijtimoiy jihatdan adolatli va kelajak avlodlar uchun mustahkam imkoniyatlar yaratadigan davlatga aylanadi. Olib borilgan tahlillar asosida aytishimiz mumkinki, ana shu muvozanat saqlangan taqdirdagina islohotlar chinakam xalqchil, taraqqiyotli esa izchil bo‘ladi.

JARAYON



www.yuz.uz

Sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish haqida gap borganda, bugun mamlakatimiz drayveriga aylangan elektrotexnika tarmog‘ini yaqqol misol keltirish mumkin. Oxirgi yillarda aynan shu tarmoqda milliy mahsulotlarimiz soni ham, turi ham keskin ortdi. Yangi ishlab chiqaruvchilar, milliy brendlarimiz paydo bo‘ldi. Hozir xonadonlarimizda foydalanilayotgan maishiy texnika vositalarining aksariyati o‘zimizning tadbirkorlar tomonidan yuqori sifatda ishlab chiqarilmoqda. Milliy brend mahsulotlarimiz ichki bozorlardan tashqari xorij davlatlariga ham faol eksport qilinaypti.

SANOATNING MUHIM DRAYVERI

MAHALLIYLASHTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHDA KATTA TARMOQQA AYLANDI



O‘tgan yillar davomida tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 8,1 barobar oshib, sohaning sanoatdagi ulushi 3,5 foiz, tovarlar eksportida 10 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda elektrotexnika yo‘nalishida mingdan ortiq kichik va o‘rta korxona faoliyat yuritib kelyapti. Sohada 35 mingdan ziyod ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Shu jihatdan ushbu tarmoq mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim o‘shish nuqtalaridan biri, aholi bandligini ta’minlashning katta yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yurtimizdagi rivojlanishlar ko‘lami, taraqqiyot istiqbollari ham bunga zamin yaratayotgani sir emas. O‘tgan 2025-yil mamlakatimiz iqtisodiyotida katta natijalar bilan tarixga muhrlandi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida erishilgan natijalar, yutuqlar sarhisob qilinay ekan, katta-katta raqamlar tilga olingani bejiz emas. Ko‘z o‘ngimizda ana shu natijalar ro‘y berdi va bunda barchamiz ishtirok etganimiz kishini quvontiradi.

Xususan, 2025-yilda tariximizda ilk bor yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshgani ulkan islohotlar samarasidir. Bunda iqtisodiyotning har bir sohasi, tarmog‘ining hisssasi bor. Rivojlanishlar ko‘rsatkichi barcha yo‘nalishlarda birdek izchillik bilan o‘sib boryapti. Natijalari esa xalqimiz turmush farovonligida ko‘zga tashlanmoqda. 2025-yil elektrotexnika sanoati uchun muvaffaqiyatli, yuqori natijalarga boy bo‘ldi. Ayni paytda sinovlardan ham xoli bo‘lmadi. Gap shundaki, jahon iqtisodiyoti logistika zanjirlaridagi uzilishlar, xomashyo narxlari o‘zgaruvchanligi, ayniqsa, mis va elektron komponentlar bozoridagi tanqislik saqlanib qoldi. Shu bilan birga, ayrim mintaqalarda geosiyosiy beqarorlik kuzatildi.

Ana shunday murakkab sharoitga qaramay, O‘zbekiston elektrotexnika sanoati davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan aniq sanoat siyosati, investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi va mahalliyashtirish dasturlari hisobiga barqaror o‘shishni saqlab qoldi. 2025-yilni soha uchun “iqtisodiy sakrash va barqarorlashuv yili”, deb baholashak bo‘ladi.

Yil avvalida qilingan rejalar o‘zini oqlab, o‘shish ko‘rsatkichi 1,5 barobar bo‘ldi. 2025-yilda ishlab chiqarish hajmi 35 trillion so‘mga, eksport hajmi esa qariyb 1,5 milliard dollarga yetdi. Misni qayta ishlash hajmi 100 ming tonnani tashkil etdi. Yaqin yillargacha ushbu ko‘rsatkich 32 ming tonnani tashkil etganini hisobga olsak, o‘shish sezilarli darajada yuqori ekanini ko‘rish mumkin. Bu keyingi yillarda misdan yuqori qiymatli mahsulot yaratishga bo‘lgan talab ortib borayotganidan ham dalolat.

Milliy brendga ishonch

Mahalliyashtirish dasturi doirasida o‘tgan yil davomida yurtimizda 5 trillion so‘mlik elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu 2023-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar o‘shishni anglatadi. Elektrovigatellar, lift va eskalatorlar, sanoat sovitish tizimlari, elektron plitalar, quyosh panellari, suv nasoslari va itishish uskunalari kabi yangi mahsulotlar o‘zlashtirildi. Bu natijalar elektrotexnika sanoatida nafaqat ishlab chiqarish quvvatlari kengaygani, balki mahsulot turlari diversifikatsiya qilindi, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tovarlar ulushi oshganini ko‘rsatadi.

2025-yilga sohaga jalb etilgan investitsiya hajmi 213,1 million dollarni tashkil etdi. Bu, asosan, ikkita yirik yo‘nalish — misni qayta ishlash klasteri hamda maishiy texnika va itishish uskunalarini ishlab chiqarish loyihalariga yo‘naltilirdi.

Avvallari loyihalar, asosan, poytaxt va unga yondosh hududlarda amalga oshirilgan. 2025-yilda esa loyihalar yurtimizning barcha hududlarini qamrab oldi. Hududlarda yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Umumiy qiymati 587 million dollarlik 71 ta loyiha ishga tushirilgan bo‘lsa, shuning 70 foizi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Yil davomida Ohangaron tumani, Farg‘ona shahri hamda Urganch tumanida texnoparklar tashkil etilib, 403,2 million dollarlik 26 ta loyiha amalga oshirilib, shundan 5 tasi 2025-yilda ishga tushirildi. Yangi quvvatlarda mis trubka va fittinglar, yuqori kuchlanishli kabellar, identifikatsiyalovchi sim katalar, maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarilaypti.

Loyihalarda asosiy urg‘u yangi mahsulot va ishlab chiqarish texnologiyalariga qaratilmoqda. Masalan, birgina poytaxtimizdagi zamonaviy texnoparkda umumiy qiymati 465 million dollardan ziyod 17 ta loyiha ro‘yobga chiqarilaypti. Elektron gap hisoblagichlar, maishiy vositachilar, sanoat

YANGI O‘ZBEKISTON



Sarhisob



“K o‘zlangan rejalər va loyihalarning ko‘lami keng. Mamlakatimiz elektrotexnika sanoatida kuchayib borayotgan quvvatlar, sharoit va tajriba mazkur loyihalarni faol amalga oshirishga imkon beradi.

konditsionerlari va sovitish tizimlari, suv nasoslari, lift va eskalatorlar, forma va qo‘plilar ishlab chiqarishga oid yangi loyihalar ishga tushirildi.

O‘zbekiston elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoatini rivojlantirishga qadam qo‘yayotgan davlatlar qatoriga kirib bormoqda. Mamlakatimizda Malayziya va Singapur kabi dunyoning yetakchi mamlakatlari tajribasini qo‘llash va bu orqali hamkorlikni kengaytirishga dastlabki harakatlar boshlangan. 2025-yilda Malayziyaning “MIMOS Berhad” tashkiloti bilan hamkorlikda O‘zbekistonda mikroelektronika va yarimo‘tkazgichlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlarga erishildi. Bu integral mikroexemalar dizaynini yaratish, kremniy plastinalar ishlab chiqarish hamda yarimo‘tkazgichlarni yig‘ish va sinovdan o‘tkazish yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Umuman, bu jarayonlarda mahalliy tadbirkorlar asosiy ishtirokchiga aylanadi. Shu bois, elektrotexnika sanoatida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilaypti. Ularning faolligi bilan yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turli nomdagi mahalliy brendlar paydo bo‘ladi. Hududlarda ishga tushirilayotgan loyihalarning katta qismi kichik va o‘rta biznes vakillari hissasiga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy standartlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga realizatsiya qilish ham osonroq kechadi. Bu O‘zbekistonni mintaqadagi elektrotexnika xabiga aylantirish bo‘yicha oldinmizga qo‘ygan vazifamizning bir qismi hamdir. Buning uchun hamkor va qo‘shni mamlakatlarda ishlab chiqarish sanoatini tashkil etib, yurtimizdan butlovchi va ehtiyot qismlar yetkazib berish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, Tojikiston va Qozog‘istonga issiqxona qozonlari, televizor, muzlatkich va sovitkichlardan tashqari, suv itishich, oshxona plitalari, minipech, changyutqich, oshxona dubbo‘roni, kir yuvish mashinasi kabi maishiy texnika ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan butlovchi va ehtiyot qismlar yetkazib berish hajmlari oshirildi.

Yangi bozorlarga ilk qadam

Elektrotexnika hozir dunyodagi eng katta bozorlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivoji elektron mahsulotlarga talabni kun sayin oshiryapti. Shunday sharoitda bu bozorga kira olgan, unda o‘z o‘rnini egallagan davlatlar yaxshigina daromadga ega bo‘ladi. Ya’ni ishlab chiqarish quvvatlari bilan birga eksport ko‘rsatkichlarini ham oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

2025-yil bu borada sezilarli ko‘rsatkichlarga erishdik deb aytayotganda, eksportyor korxonalarimiz tomonidan qiymati 1,5 milliard dollarlik elektrotexnika mahsulotlari xorijlik buyurtmachilarga yetkazildi. Ekspert geografiamiz 72 ta davlatga yetdi. Mahsulotlarimiz ilk bor Daniya, Bahrayn, Indoneziya kabi yangi bozorlarga kirib bordi. AQSH, Kanada,

Hindiston, BAA, Turkiya, Buyuk Britaniyaga eksportni yo‘lga qo‘ygan mahalliy korxonalarimiz soni ham ortdi. “GSP+” imtiyozlaridan foydalangan holda Yevropa mamlakatlarining o‘ziga 22 ta korxonamiz qariyb 150 million dollarlik mahsulot eksport qilishga erishdi.

Jahon tendensiyasi ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy sotish usullaridan ko‘ra, onlayn tarzda marketpleyslar orqali savdo qilish anchagina byurokratik to‘siqlardan xalos etadi. Shu bois, joriy yilda Buyuk Britaniyaning “Pitaks”, Fransiyaning “Auchan” va “Leroy Merlin”, Rossiyaning “M.Video-Eldorado”, “DNS Atlas” va “Wildberries” hamda Qozog‘istonning “Sulpak” va “Texnodom” kabi yirik savdo tarmog‘lari orqali mahalliy mahsulotlarning eksport ko‘lamini kengaytirish harakatlari faollashdi. Xususan, Rossiya va Qozog‘iston bozorlariga yirik marketpleyslar orqali kirib borib, to‘g‘ridan to‘g‘ri yakuniy iste’molchiga mahsulot yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada Rossiyaqa eksport hajmini 500 million dollar, Qozog‘iston bozoriga 300 million dollarga yetkazish maqsad qilinagan.

Bundan tashqari, avval yaxshi e’tibor berilmagan Afg‘oniston bozoriga ham asta-sekinlik bilan kirib boryapmiz. 2025-yilning noyabr oyida Afg‘onistonning Mozori Sharif shahridagi eng gavjum savdo hududida “Uzelectronics” multibrend savdo markazi ochilishi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu markazda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan elektrotexnika mahsulotlari sotuvi yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda 25 ta o‘zbek kompaniyasi tomonidan 500 dan ortiq turdagi mahsulot xaridorlarga taqdim etilmoqda.

Afg‘oniston bozorida yana ikkita shunday savdo markazi ish boshlaydi. Bu orqali ushbu mamlakatga eksport hajmini 10 million dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Qolaversa, Rossiyaqa multibrend servis markazi tashkil etish hamda marketpleyslar orqali ushbu davlatga eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish, AQSHda mahsulotlarni tarqatish markazlari tashkil etish orqali yirik kompaniyalar ta’minot zanjiriga kirish va 120 million dollarlik eksportni amalga oshirish bo‘yicha faol harakatlar qilinmoqda.

2026-yildan kutilmalarimiz

2025-yil davomida erishilgan natijalar bu yildagi rejalər uchun ham muhim asos bo‘ladi. 2026-yilda elektrotexnika sanoati oldiga qo‘yilgan maqsadlar katta. Avvalo, ishlab chiqarish hajmini 50 trillion so‘mga, eksportni esa qariyb 3 milliard dollarga yetkazish, shuningdek, investitsiyalar hajmini 250 million dollardan oshirish rejalashtirilgan. Hududlarda yangi klasterlar tashkil etilib, yirik loyihalar ishga tushiriladi. Jarayonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi va yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni dunyo tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida raqobatbardosh zamonaviy kadrlarga talabni tobora kuchaytirmoqda. Bu, o‘z navbatida, 2025-2030-yillarda korxonalarimiz muhandis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganishga olib keldi. Shundan kelib chiqib, kelgusida tarmoq uchun 15 ming 200 nafar, shundan 3400 nafar olti va 11 ming 800 nafar o‘rta ma’lumoti mutaxassis kadrga ehtiyoj reja qilinmoqda.

Sohada xalqaro hamkorlik yanada kengaytiriladi. Jumladan, Xitoyning “Gotion” kompaniyasi bilan hamkorlikda litiy batareyalar, Daniyaning “FLSmidth” kompaniyasi bilan litiy-katn sanoati uskunalari, 2027-yilda esa Xitoyning “Great Wall” kompaniyasi bilan hamkorlikda server va displeyler ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Yangibayot tumanidagi “Yangi avlod” sanoat zonasida elektrotexnika yo‘nalishida ham yirik loyihalarini amalga oshirish ishlari boshlangan.

Umuman, ko‘zlangan rejalər va loyihalarining ko‘lami keng. Mamlakatimiz elektrotexnika sanoatida kuchayib borayotgan quvvatlar, sharoit va tajriba mazkur loyihalarini faol amalga oshirishga imkon beradi.



2025-yil 3-may kuni sodir boʻlgan ushbu koʻngilsiz voqeada ikki qizaloqning ham joni omon qoldi, ammo bir vatandoshimiz bu ezgu ish yoʻlida oʻzini fido qildi. Ayting-chi, bu ishini insonparvarlik, xalqsevarlik demay boʻladimi? Aslida, mana shuning oʻzi vatanparvarlik emasmi?



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TUG'MA VATANPARVAR

yoxud qalbni quvvatlantiruvchi hikoyalar



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Vatanparvarlik nima?

Tunov kuni ijtimoiy tarmoqlarda “Ayni paytda eng vatanparvar xalq qaysi?” deya bir nechta variantdan iborat soʻrovnoma joyladim. Hamma oʻz bilganini ilgari sura boshladi. Kimdir koʻchalarida bayrogʻi hilpirab turgan turklarni vatanparvar, desa, boshqa birov hamma joyni oʻz uyidek ozoda tutadigan yaponlarni maqtashga tushdi.

Baʼzilar butun dunyo ahlining qoʻliga “Ayfon”ini tutqazib qoʻygan AQSHni, ayrimlar esa “Jumong”, “Tangem” kabi tarixiy seriallarni ishlagan Janubiy Koreyaning aholisini eng vatanparvar xalq deb taʼrifladi. Biroq deyarli hech kim “Oʻsha vatanparvar — bizmiz”, demadi.

Odamlarga boshqa bunday savol bermaydigan boʻldim. Soʻrovnomani ham tag-tugi bilan oʻchirib yubordim. Nahot oramizda vatanparvarlar boʻlmasa? Har safar 14-yanvar — Vatan himoyachilari kunida tugʻilganimni faxr bilan aytсам, odamlar “Tugʻma vatanparvar ekansiz-da”, deya hazillashadi. Har gal qaddimni kerib, “Albatta”, derdim. Ammo yuqoridagi voqeadan keyin oʻylanib qoldim.

Soʻng tevarak-atrofimdā vatanparvar insonlarni qidirib boshladim. Bilasizmi, son-sanogʻsiz vatanparvar yurtdoshlarimizni topdim. Ha, ular bir bilan shundoq yonma-yon yashamoqda. Lekin biz ularni payqamaymiz. Sababi “Kichkina tabib” filmida aytilganidek, qalbimizdan “Kichkina qanotlari bor oppoq farishtalar ketib qolgan”da boʻlsa kerak. “Vatanparvar” soʻziga bunday munosabat esa uning siyqasini chiqarib qoʻllaganimizda boʻlsa ne ajab. Odatda vatanparvarlik, millatsevarlik, xalqparvarlik kabi soʻzlar qancha koʻp aytilsa, ohori shuncha tez toʻkiladi. Holbuki, bunday fazilatlar aytilmaydi, koʻrsatiladi. Kimdir qaysidir ezgu ishi bilan koʻrsatsa, biz uni his qilamiz. Men sizga aytib bermoqchi boʻlgan hikoyalar vatanparvarlikning asl mohiyati haqida soʻzlaydi. Ular ertakka oʻxshab tuyuladi. Ammo sizni uxlatmaydi, aksincha uygʻotadi. Qor qoplagan tugʻularingizning chechak kabi ochilishiga turtki beradi. Qalbingizni quvvatlantiradi. Axir ular — uygʻotuvchi ertaklar.

Insonparvarlik

Quyosh allaqachon togʻlar ortiga choʻkkan edi. Ammo anhor boʻyida oʻtirgan uch qizaloq

oʻyin bilan ovora boʻlib, qosh qorayayotganini payqamadi. Pishqirib oqayotgan Boʻrtjar kanalidagi suv xuddi boʻriga oʻxshab uv tortardi. Biroq uning ovozi qizlarni shovqin-suronini yutib yuborardi.

Qizaloqlardan biri uyiga ketmoqchi ekanini aytgach, oʻyin toʻxtadi. Boshqasi esa avval oyogʻini yuvib olishini aytib, anhor tomon yugurdi. Suv boʻyiga yaqinlashganda, toʻsatdan sirpanib, kanal ichiga tushib ketdi. Uning qichqirigʻini eshitgan dugonasi yordam berish uchun oʻzini suvga otdi. Ammo u ham choʻka boshladi. Uchinchi qiz esa nima qilishini bilmay qoldi. Soʻng xayolini yigʻib, odamlarni yordamga chaqirdi. Shu atrofda oʻtib ketayotgan bir ayol koʻmakka shoshildi. Ammo qizlardan biri qirgʻoqqa yaqinroqda boʻlsa, ikkinchisi kanal oʻrtasida oqib borardi.

Ayol qirgʻoqqa yaqin qizni qutqarishga urindi. Biroq ikkinchi qizni suv oqim boʻylab olib ketdi. Shu tobda kanal yaqinida yashovchi Abdumannop Samikovning koʻzi oqib ketayotgan qizchaga tushib qoldi. Avvaliga suvdagi bolaga qarab, uni oʻzining bolasi deb gumon qildi va ortida turgan oʻgʻliga: “Qara, ukang oqib ketyapti!” deya baqirgancha suv tomon yugurdi. Kanal boʻyiga tushishdan oldin oʻgʻli bu uning ukasi emasligini, ukasi hovlida oʻynab yurganini aytdi.

Abdumannop aka suvga sakradi va choʻkayotgan qizaloqni tutib qoldi. Norasidani suv boʻyiga olib keldi, ammo oʻzi suvdan



yuqoriga koʻtarila olmadi. Katta oʻgʻli otasining qiyin ahvolda qolganini koʻrib, oʻzini suvga otdi. Abdumannop aka oqimga qarshilik qilishdan juda horigandi. Qoʻlidagi bolani oʻgʻliga berdi-yu, oʻzi gʻarq boʻldi. Bu orada boshqalar yordamga kelib, yigitni va qizaloqni qutqardi. Ammo qahramonning oʻzi suvga tushgan nurdek gʻoyib boʻlgandi...

2025-yil 3-may kuni sodir boʻlgan ushbu koʻngilsiz voqeada ikki qizaloqning ham joni omon qoldi, ammo bir vatandoshimiz bu ezgu ish yoʻlida oʻzini fido qildi. Ayting-chi, bu ishini insonparvarlik, xalqsevarlik demay boʻladimi? Aslida, mana shuning oʻzi vatanparvarlik emasmi?

Oradan bir oy oʻtib, Prezidentimizning “Bir guruh fuqarolarni “Jasorat” medali bilan



mukofotlash toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra, qahramonlik koʻrsatgan yurtdoshlarimizning matonati va insoniy fazilatleri eʼtirof etildi hamda davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular orasida Abdumannop Samikov ham bor edi...

Fidoyilik

Pandemiya butun dunyoni tahlkaga solgan davrlar edi. Oʻshanda odamlar har kuni qancha odam koronavirus tufayli vafot etgani haqidagi statistikani oʻqib, tirik qolgani uchun shukrona aytardi. Mamlakatimizda ham qatʼiy karantin tartibi oʻrnatilgan edi.

Oʻsha kezlarda Sogʻliqni saqlash vazirligida ishlardim. Bir kuni rahbarimiz kelib: “Tez tayyorlaning, jurnalistlar bilan Zangiotadagi yuqumli kasalliklar shifoxonasiga borib, u yerdagi jarayonni batafsil yoritib kelasiz”, dedi. Shifoxonada maxsus karantin hududi tashkil etilib, koronavirus bilan kasallanganlar davolanayotgan edi. Avvaliga yuragim uvushib, peshonamdā sovuq ter chiqqanday boʻldi. Jon degani shirin ekan-da. Ayniqsa, har kuni eʼlon qilinayotgan oʻlim haqidagi xabarlar kishida vahima uygʻotarkan. Bu hudud sogʻlom odam uchun naq virusning oʻchogʻi edi axir. Boʻlmadi, oxiri jurʼat topib: “Menmi?” deb soʻradim ovozim qaltirab. “Ha, siz. Qaysidir kuni men ham borib keldim. Mana yuribman-ku”, dedi rahbarimiz oʻta xotirjamlik bilan.

Xullas, 10-20 chogʻli jurnalist bilan aytilgan manzilga bordik. Kirishimizdan oldin shifokorlar karantin talablari va bemorlar bilan xavfsiz muloqot talablarini tushuntirdi. Maxsus himoya kiyimlari berildi.

U yerda shifokor va hamshiralarning bemorlarni davolash uchun jonini jabborga berib ishlayotganini koʻrgach, ichimdagi hadikdan asar ham qolmadi. Oq libos egalari oʻz hayotini xatarga qoʻyib, xastalar tuzalishi uchun astoydil kurashayotgan edi. Oʻshanda kasbga sadoqat, fidoyilik qanday boʻlishini teran his qildim. Xalq uchun fidoyilik bilan xizmat qilgan bunday insonlarni vatanparvar, desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Ortiqcha taʼrifu tavsifga zarurat yoʻq. Zotan, bu davrni birga boshdan kechirdik. Shifokorlarning fidoyiligini oʻz koʻzimiz bilan koʻrdik. Agar bir oz yodingizdan koʻtarilgan boʻlsa, Toshkent shahridagi Gʻalaba bogʻi yodgorlik majmuasi yonidagi “Tibbiyot xodimlari xotirasi” xiyobonini sayr qiling. Bu yerda pandemiya paytida bemorlar hayotini qutqarish uchun oʻzini fido qilgan shifokorlar va hamshiralar haqida maʼlumotlarga ega boʻlasiz.

Qahramonlik

— Endi iloji yoʻq.
— Bizni “sindirishdi”.

Kiyinish xonasida tumaqator tizilib oʻtirgan oʻsmirlarning xayolida mana shu fikr aylanardi. Ular bu soʻzlarni oshkora aytishdan, bir-biriga umidsiz nigohini koʻrsatishdan iymanardi.

Barcha boshini quyi solib oʻtirardi. Zinhor bir-biriga tik qaramasdi. Chunki hali oʻyin tugamagan, koʻzidagi yoshni jamoadoshiga koʻrsatgisi kelmasdi. Axir koʻz koʻzga tushganida bexosdan ichdagi soʻzlarni aytib yuborish, oʻzining umidsizligini jamoadoshiga ham yutqirish mumkin edi.

Shu payt xonaga murabbiy kirib keldi. U shogirdlarining nigohiga boqdi. Chunki murabbiy koʻzidagi ishonch, umid, jasorat, vatanparvarlik tuygʻularini shogirdlari koʻngliga koʻchirishi kerak edi. U “Gʻalaba qozonishni xohlaysizlarmi?” deb soʻradi. Hech kim javob bermadi — axir shisiz ham hammasi tushunarli edi — zafar quchishni kim istamaydi?! Murabbiy ishonch va qatʼiyat bilan soʻzida davom etdi: “Agar gʻalaba qozonishni istasangiz, kurashing. Chunki oʻyin taqdirini oʻzingizdan boshqa hech kim oʻzgartira olmaydi... Vatan shaʼni, millat gʻururini himoya qiling!”.

Murabbiy ovoqidagi dadillik futbolchilarning ruhini koʻtardi. Koʻzlaridagi ishonch choʻgʻi esa shogirdlarining tuygʻularini alangalatib yubordi.

Keyin yashil maydonda nima sodir boʻlganiga barchamiz guvoh boʻldik. 2025-yil 20-aprel. Futbol boʻyicha Oʻzbekiston oʻsmirlar terma jamoasi Osiyo kubogi finalida turnir mezbonlarini 2:0 hisobida magʻlub etib, chempion boʻldi. Eng hayratlanarli, oʻzbekistonliklar birinchi boʻlimning oʻzidayogʻi ikkita qizil kartochka olib, 9 kishi boʻlib qolgandi.

Oʻyinni kuzatgan millionlab yurtdoshlarimiz payqandir: yigitlarimizning birinchi boʻlimdagi harakatidan ikkinchi boʻlimdagi oʻyini farq qilardi. Sababi endi ular faqat mahorat va jismoniy

kuchga emas, balki matonat, or-nomus, gʻurur, millatsevarlik va vatanparvarlik hislariga ham tayanardi. Ularning natijasini hech ikkilanmay qahramonlik deb atashimiz mumkin.

Burch va sadoqat

(Askarning oʻgʻliga maktubi — real voqealarga asoslangan badiiy toʻqima)

Surxondaryo togʻlariga yarim metrl qor yogʻmoqda. Bu yerning izgʻirini tanangni Kalashnikov oʻqidan ham chuqurroq teshib oʻtadi. Yelkamga ogʻir qurol taqilgan holda bu maktubimni yozyapman. Ha, bugun men shunga qaror qildim.

Oʻgʻlim, bu senga yozgan soʻnggi maktubimdir. Agar sen bu xatni oʻqiyotgan boʻlsang, demak, men allaqachon narigi dunyodaman. Nega bu maktubni yozayotganim haqida soʻramoqchimisiz? Oʻgʻlim, axir aytishadi-ku, oʻlim kutilmaganda keladi deb. Goʻyo bu biz — askarlar uchun oʻylab topilgana oʻxshaydi.

Ana, men turgan yerdan 100 metr narida chegara toʻsigʻi bor. Oppoq qor ustiga yopilgan zulmatda gʻira-shira koʻzga tashlanadi. Bilasammi, shu chegaraning narigi tomonida, togʻli afgʻon oʻlkasida urush boʻlmoqda. Oʻlim shargasi chegara atrofida kezadi. Ammo zinhor va zinhor bu tomon oʻtolmaydi. Men va qurol-doshlarim bunga sira yoʻl qoʻymaymiz. Olisga tikkan koʻzlarimizni bir zum yumib ochishga ham haqqimiz yoʻq. Biz buni juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun tarbiyalandik. Bizga oʻlinga tik boqish oʻrgatilgan. Ammo inson har qancha mahoratli boʻlmasin, qismat oldida ojiz qolarkan. Xizmat davomida bunga koʻp guvoh boʻldim. Shuning uchun senga aytmokchi boʻlgan, qalbmimgi soʻzlarni qogʻozga tushiryapman. Agar uyga eson-omon qaytib borsam, bu xatni yitrib tashlayman.

Eng qizigʻi nima, bilasammi? Men hatto oʻlimim sababi nima ekanini ham bilmayman. Balki chegara atrofiga koʻmilgan minglab minalardan birini bosib qoʻygan boʻlaman. Yoki chegara ortidan adashib kelgan daydi oʻq koʻsimni teshib oʻtgan boʻladi. Anigʻini bilmayman. Ammo shuni yaxshi bilamanki, agar bu maktubni oʻqiyotgan boʻlsang, endi hayot senga oson boʻlmaydi. Ha, sen tuyayotgan tuygʻularni men ham his etganman. Men otasiz oʻshish nima ekanini yaxshi bilaman. Otam bizni tashlab ketgan. Ikki norasida goʻdak — akam bilan meni onamning yolgʻiz oʻzi katta qilgan. Bu maktubni oʻqigan paytingda sen endi yosh bola emassan. Kap-katta yigʻitsan, bir oilaning boshidan. Bu masʼuliyatni, yukni senga meros qilib qoldiryapman.

Oʻgʻlim, hayotning ikir-chikirlariga eʼtibor berm. Oldingga katta maqsad qoʻy va unga intilib yasha. Onangni, singillaringni doim himoya qil. Maktabdagi tengdoshlaringning gap-soʻzlaridan jahling chiqmasin. Ular hali yosh bola, ulgʻaygach, seni tushunishadi. Nohaqlik oldida jim turma, ammo urishib-soʻkishishdan foyda yoʻq, buni ham unutma. Haqiqatga urush bilan erishib boʻlmaydi.

“Ertaga oʻtalar majlisi”, hammaning otasi kelishi shart”, deydingan, 30-40 chogʻli sifdoshing orasida “Otasi yoʻqlar qoʻlini koʻtarsin”, deydingan oʻqituvchilaring bilan talashma. Amakingga aytasang, oʻmimga majlisga boradi. 9-may yoki 14-yanvarda faxriy yorliq, sovgʻa-salom koʻtarib keladigan, seni bagʻriga bosib kamera oldida jilmayib turadigan masʼullardan jahling chiqmasin. Ular ham oʻz vazifasini bajaryapti.

Soʻnggi oʻgʻitim: hech qachon “Otam yoʻq”, deb boshingni egma. “Yetimman?” deb soʻrasa, mulzam boʻlma. Sen nega boshingni egishning, nega mulzam boʻlishing kerak?!

Axir men yurtdan olisda, odamlarning tinchini buzib, buzgʻunchilik qilib oʻlmadim. Hatto kasallikdan yoki kutilmagan avtohalokatdan umrim poyoniga yetmadi. Men shu Vatan uchun, xalq uchun, sening kelajaging uchun jon fido qildim. Sen bunday savol berganlarning koʻziga qarab: “Ha, otam yoʻq. Otam sen va mana shu xalqning tinchlighi, davlatning kelajagi uchun fido boʻlgan”, deb ayt.

Oʻgʻlim, men qanday vafot etishimni bilmayman, ammo qanday yashaganimni, nima uchun jonimni qurbon qilganimni yaxshi bilaman. Shuni unutmā: ichgan ontimga, burchimga sodiq qoldim. Men Vatan oldidagi soʻnggi vazifamni bajardim. Seni oʻqitib, yaxshi odam qilib yetishtirsa, xalqimiz, davlatimizdan rozi boʻlaman. Oʻgʻlim, men seni juda yaxshi koʻraman.

Ezgulik

Maqolaga nuqta qoʻyarkanman, eshik taqilladi. Sahifalovchimiz kelib, gazeta tayyor boʻlganini, bosmaxonaga olib borish kerakligini aytdi. Bosmaxonaga bordim. Gazetani chop etib, shahar tashqarisidagi boshpanam tomon yoʻl oldim.

Tun chekinib, asta-sekin tong yorishib kelmoqda. Qishning ayni chillasi. Koʻchada qolib ketsangiz, tuning qora sovuqʻidan jon saqlab qolarsiz, ammo ertalabki izgʻirinning zahri tanangizni falajlay deydi. Menga bu sovuq taʼsir etmaypti, chunki issiqqina mashinada uyga qatyapman. Mashina derazasidan tashqariga qarayman.

Koʻchada ish qurollarini koʻtarib olgan obodonlashtirish boʻlimi xodimlariga koʻzim tushdi. Bu sovuqning zahrlari uch sezaotgan keldim: vatanparvarlik bu — barcha ezgu ishlar inʼikosidir.

Hatto olis mamlakatlarda yuk mashina haydab, sovuq oʻrmonlarda ishlab, uyga pul yuborish ham vatanparvarlikdir. Axir ular oilasi yaxshi yashashi uchun ishlayapti. Oila esa Vatan ichidagi kichik bir vatan.

Keyin vatanparvarlikning boshqa qirralarini ham kashf qildim. Oxiri, shunday xulosaga keldim: vatanparvarlik bu — barcha ezgu ishlar inʼikosidir.

Shunda haydovchi akamiz “Sanjarbek, bugun tugʻilgan kuningiz ekan”, deya savol berib xayolinni boʻldi. “Zoʻr kunda tugʻilgan ekansiz, qoʻshaloq bayramlar muborak boʻlsin. 14-yanvarda tugʻilish har kimga ham emas. “Tugʻma” vatanparvar ekansiz-da”, deb tabassum qildi.

“Ha, albatta”, dedim ogʻzimni toʻldirib, quvnoq ohangda. Tabrik uchun rahmat aytib, yana xayollar ogʻushiga choʻmdim. Atogʻli shoirimiz Halima Xudoyberdiyevaning ushbu satrlarini takrorladim:

Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim, Yozganda koʻksimga tigʻ urib yozdim. Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach, Qalamni qonimga botirib yozdim.

Qon asli yorugʻlik. Yorugʻlan, tiz choʻk, Asl mard Vatanga tiz choʻkib oʻtar. Qancha qoning boʻlsa — Vatan uchun toʻk, Qancha shoning boʻlsa — Vatanni koʻtar!

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

МУАССИС:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.
Bosmaxona telefonlari: (71) 233-11-07.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-146.
32015 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻZA yakuni — 00:35

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.